



## “O'TKAN KUNLAR” ROMANIDA SEVGI, SADOQAT VA VATANPARVARLIK G'OYALARI

### **Jumanazarova Mohlaroyim Islombek qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi  
mail: muhaddisa0604@gmail.com ,

### **Eshmamatova Charos Erali qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi  
charoseshmamatova3@gmail.com ,

### **Rajabova Rayhona Muhammad qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi  
rayhonarajabova92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378159>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida ifodalangan sevgi, sadoqat va vatanparvarlik g'oyalarining badiiy talqinini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada roman qahramonlarining shaxsiyatida namoyon bo'ladigan oliy ma'naviy qadriyatlar, ularning o'zaro bog'liqligi va milliy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Otabek va Kumush obrazi orqali ifodalangan romantik sevgi, oilaviy sadoqat va mustabid tuzum sharoitida vatanparvarlikning turli ko'rinishlari o'rgangan. Siz maqolani o'qish davomida sevgi, sadoqat va vatanparvarlik g'oyalarining badiiy ifodalanish xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligi va roman qahramonlarining shaxsiyatida namoyon bo'lish dinamikasini tahlil qilishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Badiiy talqin, vatanparvarlik, maktub, dostonchilik

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani nafaqat o'zbek, balki butun turkiy adabiyotning durdona asarlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi[1]. Ushbu maqola orqali “O'tkan kunlar” asarining nafaqat tarixiy-badiiy, balki ma'naviy-axloqiy qo'llanma sifatidagi ahamiyati ochib beriladi, zamonaviy o'quvchiga asardagi abadiy qadriyatlarni yangicha anglash imkoniyati yaratiladi.

Bugungi rivojlanayotgan zamonda sevgi, sadoqat va vatanparvarlik ruhi insonlar o'rtasida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu tuyg'ular inson hayoti davomida juda ko'p kerak bo'ladigan va insonni tark etmasligi kerak bo'lgan tuyg'udir. Shu sababli bu tushunchalar jamiyatimizda qadimdan hozirgi kunga qadar dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, XIX asr oxiri XX asr boshlaridan boshlab bu hislar va ularning davrga qanaqa ahamiyatliligi, yoshlar ong-u shuuriga ta'siri haqida keng mulohazalar yuritilmoqda.

Aynan mana shu masalalarni XX asr boshlarida yo'q Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” ro'manida ochiqlashga harakat qilgan. Unda vatanparvarlik ruhi insonda qanaqa bo'lishi kerak ekanligini Otabek va Yusufbek hoji obrazi orqali ochib beradi. Yusufbek hoji Otabekka Toshkentning ahvoli haqida yozgan maktubida “Sen bilan manim ko'ngillarimizdagi yaratg'uchig'agina ma'lum bo'lib, ammo Farg'onada meni Azizbekning sherigidir deb o'ylashlari va seni bir fitnachining o'g'li deb tanishlari ehtimoldan yiroq emasdir. Shu jihatlarni mulohaza qilib oyog' bos!”(Abdulla Qodiriy Toshkent yangi nashr 2019.33) deganlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Bu bilan Qodiriyning noyob uslubi an'anaviy dostonchilik bilan zamonaviy psixologik realizm uyg'unligi yoritib beradi. Tanqidchi Rashid Qodiriy ham asarning kuchi tarixiyligida emas, balki har bir qahramon o'zbek milliy xarakterining arxipini yaratishdadir. - deydi[3].

Bundan tashqari Kumush va Otabek o'rtasidagi sevgi kuchli ekanligini anglashimiz mumkin. Ammo Zaynabning sevgisi ham ularnikida kam emas edi. Shunaqa bo'lsada u sevgisiga javob ololmadi. Bunda aynan

Zaynabni Kumushning o'limida ham ayibdor deb bo'lmaydi. Yoki Otabekni bu ishlarda aybi bor ham deb bo'lmaydi. Bunga asosiy ayibdor- davr. Chunki aynan o'sha davr ayollari qanchalik sadoqatli ekanini Zaynab va Kumush timsolida ham ko'rolamiz. Kudoshli bo'lsa ham ularning ikkisi ham sevgisidan uzoqlashadi, uni tashlab ketmadi.

Vaziyatning boshqa tomonini tahlil qiladigan bo'lsak, asarda bir qancha joyida vatanparvarlik ruhini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, "Otabek Mirzakarim qutidor uyidagi mehmondorchilikda safar-sayohatlarida ko'rgan-kechirganlaridan so'zlaydi. "O'rislarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy" holatlarini bayon etgach, bir o'rinda aytadi. Jurnalda: "Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan keta berganida kofir qo'liga mahkum bo'luvimizni o'ylab (Xudo u kunni ko'rsatmasun) butun avqotimni qayg'u bilan o'tquzmoqg'a majbur bo'ldim". "...Kofir qo'lig'a mahkum bo'luv", vaqtini "qayg'u bilan" o'tkazmoq — bular yengil ifodalar emas. Kitobda o'sha jumlaning yumshagan tahririy varianti keladi: "Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa holimizning nima bo'lishiga aqlim yetmay qoldi". O'sha suhbatda Ziyoz shohichi xalqning nochor ahvolidan gapirib aytadi. Jurnalda: «Bizning bu holda bo'luvimizning bosh sababchisi o'z fe'li xuyimizning yomonlig'idir". Kitobda: "Bizning bu holga tushishimiz o'z fe'li xuyimizdan". Adib xalqning fe'liga «yomonlik»ni ravo ko'rmaydi[4]. kabi tahliliy fikrlarni ko'plab tajribali kuzatuvchilarning maqolalarida uchratishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek romanchilik san'ati durdonasi hisoblangan ushbu asarda juda ham boy sujetlar talqin etilgan. Ayniqsa, eng kuchli sadoqat va fidokorlik sahnalariyurakni larzaga soladigan darajada jonli tasvirlangan.

Qodiriy Kumushni "o'ldirdi". Yozuvchi asariga shu darajada ixlos qo'yidiki, romanning shu qismi yozilgan oqshomda muallif uyidan yig'i ovozi eshitildi. Ammo haqiqiy kitobxon qurbon bo'lgan Kumush emas Zaynab ekanligini anglab yetadi. Negaki, Qodiriy uni o'sha davr qurboniga aylantirdi. Ushbu kitobning sevimli o'quvchilari sifatida shuni aytishimiz mumkinki, "Bu dunyo Kumushni tuproqqa, Zaynabni esa g'amga ko'mgan dunyodir".

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qodiriy, A. O'tkan kunlar Toshkent. 2019.
2. XX asr o'zbek adabiyoti [Monografiya]. Kh-davron.uz.
3. <https://kh-davron.uz>
4. Ziyouz.uz. [http://ziyouz.uz/images/utkan\\_kunlar](http://ziyouz.uz/images/utkan_kunlar)